



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRINING  
BUYRUG'I**

2025-yil "16"-may

186-son

Toshkent shahri

**Oliy ta'lif tashkilotlarida talabalarning "Ijtimoiy faollik indeksi"ni joriy etish  
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2025-yil 22-yanvar kuni oliy ta'lif va ilm-fan sohasida 2025-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalarga bag'ishlangan taqdimotda berilgan 5-sonli topshiriqlarning 13-bandi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-martdag'i "Oliy ta'lif tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 149-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, oliy ta'lif tashkilotlari talabalarining ijtimoiy faolligi, vatanparvarligi, fidoiyligi va tashabbuskorligini oshirish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Oliy ta'lif muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy-mafkuraviy, ijtimoiy-huquqiy yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, ta'lif grantiga talabgorlarning ijtimoiy faollik ko'rsatkichini aniqlash maqsadida talabaning o'qish jarayonidagi ijtimoiy faolligini har o'quv yili oxirida maksimal 100 ballik tizimda baholash mexanizmi joriy etilsin.

2. Oliy ta'lif tashkilotlari hamda ularning filiallari talabalarining "Ijtimoiy faollik indeksi"ni baholash metodikasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi** (X. Sultanov), **Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi** (N. Kasimov), **Talaba va o'quvchilarining ijtimoiy faolligini oshirish markazi** (A. Akramov), **Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi** (J. Xalilov), **Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi** (K. Artikov) 2025-yil 1-sentyabrga qadar talabalarning ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy yo'nalishlardagi faoliyatini baholab borishga qaratilgan maxsus elektron platformani ishlab chiqish va joriy etish choralarini ko'rsin.

4. **Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi** (N. Kasimov) **Talaba va o'quvchilarining ijtimoiy faolligini oshirish markazi** (A. Akramov) bilan birlgilikda:

ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy yo'nalishlardagi faoliyatini baholab borishga qaratilgan maxsus elektron platformani yuritishga mas'ul etib belgilansin;

**bir oy muddatda** oliy ta'lif tashkilotlari hamda ularning filiallari yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor (direktorning birinchi o'rinnbosar)lari uchun joriy etilayotgan talabalarning "Ijtimoiy faollik indeksi"ni to'liq mazmun-mohiyati bo'yicha qisqa muddatli o'quv-seminarlarini tashkil etsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinnbosari S. Buzrukxonov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



K. Sharipov



Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma  
yordamida QR-kodni skaner qilish  
orqali tekshirish mumkin



## Oliy ta’lim tashkilotlari hamda ularning filiallari talabalarining “Ijtimoiy faollik indeksi”ni baholash METODIKASI

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Oliy ta’lim tashkilotlari hamda ularning filiallari talabalarining “Ijtimoiy faollik indeksi”ni baholash metodikasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-martdagи “Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 149-sон qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to‘g‘risida Nizomga 2-ilovaga muvofiq ta’lim grantiga talabgorlarning ijtimoiy faolligini aniqlash bo‘yicha baholash mezonlariga ko‘ra talabalarning “Ijtimoiy faollik indeksi”ni baholash tartibini belgilaydi.

Mazkur Metodika Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi oliy ta’lim muassasalariga nisbatan tadbiq etiladi hamda boshqa ta’lim muassasalariga tavsiyaviy harakterga ega.

2. Ushbu Metodikada quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**Ijtimoiy faollik indeksi** — har bir talabaning o‘qish jarayonida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardagi ishtiroki, harakati (yoki harakatsizligi), ijtimoiy, ma’naviy, ma’rifiy yo‘nalishlardagi faoliyatni samaradorligi ko‘rsatkichi;

**Ijtimoiy faollikni aniqlash bo‘yicha komissiya** – ta’lim grantiga talabgorlarning ijtimoiy faolligini aniqlash uchun oliy ta’lim tashkiloti rektori (direktori) tomonidan yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor (direktor o‘rinbosari) raisligida 9 nafardan kam bo‘lmagan tarkibda tuziladigan komissiya;

**“Ijtimoiy faollik indeksi”ning asoslovchi hujjatlari** – talabalarning ijtimoiy faolligini aniqlash bo‘yicha baholash mezonlariga muvofiq mazkur baholash metodikasi bo‘yicha tasdiqlangan asoslovchi hujjatlar jamlanmasi.

**Maxsus elektron platformasi** – talabalarning ijtimoiy, ma’naviy, ma’rifiy yo‘nalishlardagi faoliyatini baholab borishga qaratilgan va baholash natijalarini aks ettiruvchi hamda ma’lumot almashinuvini nazarda tutuvchi axborot tizimi.

3. Talabalarning “Ijtimoiy faollik indeksi” har o‘quv yilining yakuni bo‘yicha 100 ballik tizim asosida baholanadi.

## **2-bob. Talabalarning “Ijtimoiy faollik indeksi”ni asoslovchi hujjatlarini maxsus elektron platformaga kiritish, tasdiqlash va baholash**

4. Ta’lim grantiga talabgorlarning ijtimoiy faolligini aniqlash bo‘yicha baholash mezonlariga ko‘ra talabalarning “Ijtimoiy faollik indeksi” quyidagi tartibda baholanadi:

- 1) Kitobxonlik madaniyati – talabalarning o‘quv yili davomida o‘qigan (tavsiya etilgan) badiiy adabiyotlar bo‘yicha test savollariga javoblari asosida;
- 2) **5 muhim** tashabbus doirasidagi to‘garaklarda faol ishtiroki – talabalarning oliy ta’lim tashkilotida tashkil etilgan har bir to‘garakdagi faol ishtiroki va talaba tomonidan to‘garak tashkil etganligi asosida;
- 3) talabaning akademik o‘zlashtirishi – talabaning GPA ko‘rsatkichi asosida;
- 4) talabaning oliy ta’lim tashkilotining ichki tartib qoidalari va Odob-axloq kodeksiga rioya etishi – talabalarning oliy ta’lim tashkilotining ichki tartib qoidalari va Odob-axloq kodeksida belgilangan talablarga rioya etishi bo‘yicha guruh tyutori va boshqa mas’ullar xulosasi asosida;
- 5) xalqaro, respublika, viloyat miqyosidagi ko‘rik-tanlov, fan olimpiadalari va sport musobaqalarida erishgan natijalari – talabalarning xalqaro, respublika, viloyat miqyosidagi ko‘rik-tanlov, fan olimpiadalari va sport musobaqalarida erishgan natijalari bo‘yicha asoslovchi hujjat (diplom, sertifikat) asosida;
- 6) talabaning darslarga to‘liq va kechikmasdan kelishi – talabalarning darslarga o‘z vaqtida kelishi hamda dars jadvaliga muvofiq tegishli auditoriyalarda darslarga to‘liq ishtirok etishi bo‘yicha davomat natijalari asosida;
- 7) talabalarning “Ma’rifat darslari”dagi faol ishtiroki – talabalarning “Ma’rifat darslari”dagi davomati natijalari va “Ma’rifat darslari”dagi faolligi asosida;
- 8) volontyorlik va jamoat ishlaridagi faolligi – talabalarning volontyorlik va jamoat ishlaridagi faolligini tasdiqlovchi hujjat va guruh tyutori (4 va undan yuqori kurs talabalari uchun fakultet dekan o‘rinbosari)ning xulosasi asosida;
- 9) teatr va muzey, xiyobon, kino, tarixiy qadamjolarga tashriflar – talabalarning teatr va muzey, xiyobon, kino, tarixiy qadamjolarga tashriflarini tasdiqlovchi hujjat va guruh tyutori (4 va undan yuqori kurs talabalari uchun fakultet dekan o‘rinbosari)ning xulosasi asosida;
- 10) talabalarning sport bilan shug‘ullanishi va sog‘lom turmush tarziga amal qilishi – talabaning sport klubiga a’zoligi, ma’lum sport turi bo‘yicha oliy ta’lim tashkiloti hamda ularning filialining terma jamoasi a’zoligi, sport seksiya yoki to‘garaklaridan birida faol shug‘ullanishi bo‘yicha tasdiqlovchi hujjat va guruh tyutori (4 va undan yuqori kurs talabalari uchun fakultet dekan o‘rinbosari)ning xulosasi asosida;
- 11) ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid boshqa yo‘nalishlardagi faolligi – talabaning tengdoshlari o‘rtasida hamda ijtimoiy tarmoqlarda faolligi, vatanparvarlik, taraqqiyatparvarlik, ilm-ma’rifat, tarbiya yo‘nalishlaridagi targ‘ibot ishtirok etishi va boshqa tashabbuskorligi asosida.

5. Talabalar “Ijtimoiy faollik indeksi”ning asoslovchi hujjatlarini har yili 10-iyulga qadar maxsus elektron platformasiga yuklaydi (2024/2025-o‘quv yili yakunida ta’lim grantiga talabgorlarning ijtimoiy faollik ko‘rsatkichini baholashda oliy ta’lim tashkiloti rasmiy veb-saytidan foydalaniladi).

6. Maxsus elektron platformaga kiritilgan Talabalar “Ijtimoiy faollik indeksi”ning asoslovchi hujjatlar ushbu metodikaning ilovasida ko‘rsatilgan mas’ullar tomonidan har yili 15-iyulga qadar tasdiqlanadi.

7. Ijtimoiy faollikni aniqlash bo‘yicha komissiya tomonidan haqiqatda talabgorning belgilangan toifadagi talaba ekanligi ko‘rib chiqilib, har yili 25-iyulga qadar baholanadi.

### **3-bob. Shikoyat qilish tartibi**

8. Talabalar “Ijtimoiy faollik indeksi”ning asoslovchi hujjatlarini hisoblash va baholash natijasidan norozi bo‘lgan taqdirda oliy ta’lim tashkilotiga 10 ish kuni ichida yozma yoki elektron shaklda shikoyat qilishi mumkin.

9. Oliy ta’lim tashkiloti hamda ularning filiallari shikoyat kelib tushgan kundan boshlab, o‘n ish kuni ichida ushbu shikoyatni ko‘rib chiqib, qaror qabul qilishi shart.

Bunda, shikoyat qilgan talaba shikoyatni ko‘rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega.

### **4-bob. Yakunlovchi qoidalar**

10. Ushbu Metodika talablariga rioya qilinishi yuzasidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

11. Ushbu Metodikaning qo‘llanishi bilan bog‘liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

12. Ushbu Metodikaning talablari buzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Oliy ta’lim tashkilotlari hamda ularning filiallari talabalarining “Ijtimoiy faollik indeksi”ni baholash metodikasiga ilova

## Oliy ta’lim tashkilotlari hamda ularning filiallari talabalarining “Ijtimoiy faollik indeksi”ni baholash mexanizmi

Nº	Mezonlar nomi	Mezonlar tavsifi	Ball	Aniqlash mexanizmi
1.	Kitobxonlik madaniyati	<p>Talabalarga <b>100 ta</b> eng sara badiiy adabiyotlar mutolaa qilish uchun tavsija etiladi.</p> <p>1. O‘quv yili davomida <b>10-12 ta</b> badiiy adabiyotlarni o‘qigan talabaga maksimal <b>20 ball</b> beriladi;</p> <p>2. O‘quv yili davomida <b>7-9 ta</b> badiiy adabiyotlarni o‘qigan talabaga maksimal <b>15 ball</b> beriladi;</p> <p>3. O‘quv yili davomida <b>4-6 ta</b> badiiy adabiyotlarni o‘qigan talabaga maksimal <b>10 ball</b> beriladi;</p> <p>4. O‘quv yili davomida badiiy adabiyot o‘qimagan talabaga ball berilmaydi.</p>	<b>20</b>	<p><b>100 ta</b> eng sara badiiy adabiyotlar ro‘yxati maxsus elektron platformaga joylashtiriladi.</p> <p>Talabalarning kitoblarni mutolaa qilganligini aniqlash bo‘yicha testlar tuziladi va platformaga joylashtiriladi.</p> <p>Badiiy asarni o‘qigan talabalar istalgan paytda oliy ta’lim muassasasi ARMga kelib, HEMIS dasturi orqali o‘z ID raqami va login parol bilan aynan o‘qigan asari bo‘yicha kompyuterda test topshiradi va ijobjiy baholansa, avtomatik tarzda ball oladi.</p>
2	<b>5 muhim</b> tashabbus doirasidagi to‘garaklarda faol ishtiroki	<p>1. <b>5 tashabbus</b> doirasida oliy ta’lim tashkilotida tashkil etilgan har bir to‘garakdagi faol ishtirok uchun <b>10 ballgacha</b> baholanadi.</p> <p>2. Madaniyat va san’at yo‘nalishidagi to‘garaklarda ishtirok uchun – <b>10 ball</b>;</p> <p>3. Sport yo‘nalishida seksiyalarda ishtirok uchun – <b>10 ball</b>;</p> <p>4. Axborot texnologiyalari yo‘nalishida to‘garaklarda ishtirok uchun – <b>10 ball</b>;</p> <p>5. Kitobxonlik va adabiyot yo‘nalishida to‘garaklarda ishtirok uchun – <b>10 ball</b>;</p>	<b>20</b>	<p>O‘quv yili yakunida talabaning <b>5 tashabbus</b> doirasida tashkil etilgan to‘garak va sport seksiyalaridagi ishtiroki bo‘yicha to‘garak rahbarlarining ma’lumotnomasi maxsus axborot tizimiga kiritiladi. Ma’lumotnomma tegishliligi bo‘yicha kafedra mudiri, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.</p>

		<p>6. Bandlik yo‘nalishida to‘garaklarda ishtirok uchun – <b>10 ball;</b></p> <p>7. Talaba tomonidan to‘garak tashkil etganligi va samarali faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi – <b>20 ball.</b></p>		
3	<b>Talabaning akademik o‘zlashtirishi</b>	<p>Talabalarni akademik o‘zlashtirish ko‘rsatkichi quyidagi tartibda baholanadi:</p> <p>GPA ko‘rsatkichi 5 bo‘lganda <b>10 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 4,9 bo‘lganda <b>9,7 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 4,8 bo‘lganda <b>9,3 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 4,7 bo‘lganda <b>9 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 4,6 bo‘lganda <b>8,7 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 4,5 bo‘lganda <b>8,3 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 4,4 bo‘lganda <b>8 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 4,3 bo‘lganda <b>7,7 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 4,2 bo‘lganda <b>7,3 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 4,1 bo‘lganda <b>7 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 4 bo‘lganda <b>6,7 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 3,9 bo‘lganda <b>6,3 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 3,8 bo‘lganda <b>6 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 3,7 bo‘lganda <b>5,7 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 3,6 bo‘lganda <b>5,3 ball;</b></p> <p>GPA ko‘rsatkichi 3,5 bo‘lganda <b>5 ball.</b></p>	10	Maxsus elektron platforma HEMIS dasturiga integratsiya qilinadi va shu orqali talabaning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari olinib, har semestr yakuni bo‘yicha ballar avtomatik tarzda qo‘yib boriladi.
4	<b>Talabaning OTM ichki tartib qoidalari va Odob-axloq kodeksiga rioya etishi</b>	<p>1. Kiyinish madaniyati (dresskod) talablariga rioya etishi — <b>2 ballgacha;</b></p> <p>2. Odob-axloq kodeksida belgilangan talablarga rioya etishi <b>3 ballgacha</b> baholanadi.</p>	5	“Ijtimoiy faollik” platformasiga har hafta 1 marotaba talabaning kiyinish madaniyati (dresskod), odob-axloq kodeksida belgilangan talablarga rioya etishi tyutor

		<p>Talabaning dresskod qoidalarini buzmasligi, Odob-axloq kodeksida belgilangan talablarga rioya etishi uning maksimal ball olishini kafolatlaydi.</p> <p>Ushbu talablar buzilgan taqdirda talabaning hujjatlari tanlov uchun qabul qilinmaydi</p>		<p>tomonidan (<i>4 va undan yuqori kurslarda dekan o'rribosari</i>) baholandi va tegishli ball qo'yiladi. "Odob axloq komissiyasi" xulosa bergen taqdirda baholashda to'liq inobatga olinadi.</p> <p>Fakultet dekani o'rribosarlar tomonidan talabaning OTM ichki tartib qoidalarini buzganligi va Odob-axloq kodeksiga rioya etmaganligi bo'yicha qabul qilingan farmoyish va buyruqlar maxsus elektron platformaga yuklanadi.</p>
5	<b>Xalqaro, Respublika, viloyat miqyosdagi ko'rik-tanlov, fan olimpiadalari va sport musobaqalarida erishgan natijalari</b>	<p>1. Ta'lif muassasasi bosqichida <b>1, 2, 3-o'rinn</b> egallagan talabalar mos ravishda <b>1, 3-ball</b> bilan baholanadi;</p> <p>2. Viloyat, hududiy bosqichlarda <b>1, 2, 3-o'rinn</b> egallagan talabalar mos ravishda <b>4-6 ball</b> bilan baholanadi.</p> <p>3. Respublika bosqichda <b>1, 2, 3-o'rinn</b> egallagan talabalar mos ravishda <b>7-9 ball</b> bilan baholanadi.</p> <p>4. Xalqaro miqyosda <b>1, 2, 3-o'rinn</b> egallagan talabalar <b>10 ball</b> bilan baholanadi.</p>	10	<p>Vazirlilik, oliy ta'lif muassasalari tomonidan o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlar, fan olimpiadalari va sport musobaqalari ro'yxati shakllantiriladi va platformaga joylashtiriladi.</p> <p>Ballar ushbu ro'yxatga kiritilgan ko'rik-tanlovlar asosida beriladi.</p> <p>G'olib bo'lgan talabalar asoslovchi hujjat (diplom, sertifikat) platformaga yuklaydi va har semestr yakunida yuklangan hujjatlar tyutorlar tomonidan o'rganilib, ballar shakllantiriladi.</p>
6	<b>Talabaning darslarga to'liq, kechikmasdan kelishi</b>	<p>Talabaning darslarga to'liq ishtiropi (<i>davomati</i>) kunlik tahlili amalga oshiriladi.</p> <p>1. <b>1 semestr</b> davomida <b>10 soatgacha</b> dars qoldirish maksimal ballning tushishiga sabab bo'lmaydi;</p> <p>2. <b>1 semestr</b> davomida <b>10 soatdan 20 soatgacha</b> dars</p>	5	<p>Talabalarning darslarga o'z vaqtida kelishi hamda dars jadvaliga muvofiq tegishli auditoriyalarda darslarga to'liq ishtirop etishi bo'yicha davomat natijalari tyutor (<i>4 va undan yuqori kurslarda dekan o'rribosari</i>) tomonidan tasdiqlanadi.</p>

		<p>qoldirish <b>3-4 ball</b> bilan baholanadi;</p> <p><b>3. 1 semestr</b> davomida <b>20 soatdan 30 soatgacha</b> dars qoldirish</p> <p><b>2-3 ball</b> bilan baholanadi;</p> <p><b>4. 1 semestr</b> davomida <b>30 soatdan</b> ortiq dars qoldirgan talabaga ball berilmaydi.</p>		
7	<b>Talabalarning “Ma’rifat darsi”dagi faol ishtiroki</b>	<p>O‘quv yili davomida “Ma’rifat darslari”da doimiy ishtiroki va faolligi— maksimal 10 ballgacha baholanadi.</p> <p>1. O‘quv yili mobaynida o’tkazilgan “Ma’rifat darslari”ning:</p> <p style="padding-left: 20px;">90-100 foizida ishtirok etishda –6 ball;</p> <p style="padding-left: 20px;">70-80 foizida ishtirok etishda – 4 ball;</p> <p style="padding-left: 20px;">60-70 foizida ishtirok etishda – 2 ball bilan baholanadi.</p> <p>2. O‘quv yili davomida “Ma’rifat darslari”dagi faolligi 4 ballgacha baholanadi.</p>	10	Talabalarning “Ma’rifat darslari”dagi davomati natijalari va “Ma’rifat darslari”dagi faolligi mas’ul professor-o‘qituvchi tomonidan maxsus elektron platformaga kiritiladi.
8	<b>Volontyorlik va jamoat ishlaridagi faolligi</b>	<p>1. Turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar;</p> <p>2. Umumxalq bayramlari;</p> <p>3. Umumxalq hasharlari;</p> <p>4. Ta’lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan jamoatchilik ishlari;</p> <p>5. Volontyorlik faoliyati, tashkilotchiligi, tashabbuskorligi inobatga olinadi.</p>	5	Har o‘quv yili yakunida guruh tyutori (4 va undan yuqori kurslarda dekan o‘rinbosari) tomonidan talabaning volontyorlik va jamoat ishlaridagi faolligi 5 ballgacha baholangan holda platformaga kiritiladi.
9	<b>Teatr va muzey, xiyobon, kino, tarixiy qadamjolarga tashriflar</b>	Talabalarning teatr, muzeylar, kinozallarga tashriflar soni, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Qo‘qon, Shahrисabz va boshqa shu kabi qadimiy shaharlarga ( <i>OTM joylashgan hududdan</i>	5	Talabalar teatr va muzey, xiyobon, kino, tarixiy qadamjolarga tashrif buyurganda tasdiqlovchi hujjatni maxsus elektron platformaga joylashtiradi. Tasdiqlovchi hujjat sifatida

		<p><i>boshqa joydagi) qadamjolar, turizm va ekoturizm maskanlariga qilingan sayohatlar inobatga olinadi va quyidagicha baholanadi:</i></p> <p>har oyda kamida bir marotaba tashrif – 5 ball;</p> <p>har ikki oyda kamida bir marotaba tashrif – 3 ball;</p> <p>semestrda kamida bir marotaba tashrif – 1 ball.</p>		<p>hudud geolokatsiyasi, hududda tushilgan fotosurat inobatga olinadi.</p> <p>Hujjatlar guruh tyutori (4 va undan yuqori kurs talabalari uchun fakultet dekan o‘rbosari) tomonidan tasdiqlanadi.</p>
10	<b>Talabaning sport bilan shug‘ullanishi va sog‘lom turmush tarziga amal qilishi</b>	<p>Talabaning sport bilan shug‘ullanishi va sog‘lom turmush tarziga amal qilishi quyidagicha baholanadi:</p> <p>1. Talabaning sport klubiga a’zoligi, ma’lum sport turi bo‘yicha oliy ta’lim tashkiloti terma jamoasi a’zoligini tasdiqlovchi a’zolik hujjati maxsus platformaga kiritiladi, guruh tyutori (4 va undan yuqori kurs talabalari uchun fakultet dekan o‘rbosari) va sport klubi tomonidan tasdiqlanadi.</p> <p>2. Sport klubiga a’zoligi, sport seksiyalari yoki sport to‘garagida muntazam sport bilan shug‘ullanishi – 3 ball;</p> <p>3. Oliy ta’lim tashkilotida o‘tkazilgan sport musobaqalaridagi faol ishtiroki – 1 ball;</p> <p>4. Talabaning o‘qish davomida turli zararli illatlar (<i>ichish, chekish</i>)dan xoli ekanligi – 2 balgacha;</p> <p>5. Toza-ozoda yurish, saranjom sarishtaligi (<i>jumladan, TTJda yoki ijara xonadonida yashash vaqtidagi tozalikka rioxay etishi</i>) inobatga olinadi va maksimal 2 ball bilan baholanadi.</p>	5	<p>Talabaning sport klubiga a’zoligi, ma’lum sport turi bo‘yicha oliy ta’lim tashkiloti terma jamoasi a’zoligini tasdiqlovchi a’zolik hujjati maxsus platformaga kiritiladi, guruh tyutori (4 va undan yuqori kurs talabalari uchun fakultet dekan o‘rbosari) va sport klubi tomonidan tasdiqlanadi.</p> <p>Har semestr yakunida tyutor (<i>TTJda tarbiyachi pedagog</i>) tomonidan talabaning Sog‘lom turmush tarziga amal qilish <b>4 ballgacha</b> baholangan holda platformaga kiritiladi.</p>
	<b>Ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid boshqa yo‘nalishlardagi faolligi uchun</b>	Talabaning tengdoshlari o‘rtasida hamda ijtimoiy tarmoqlarda faolligi, vatanparvarlik, taraqqiyatparvarlik, ilm-ma’rifat, tarbiya yo‘nalishlardagi targ‘ibot	5	Har semestr yakunida tyutor (4 va undan yuqori kurs talabalari uchun fakultet dekan o‘rbosari) tomonidan Ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid boshqa yo‘nalishlardagi faolligi

	<p>ishlarida ishtirok etishi va boshqa tashabbuskorligi inobatga olinadi va quyidagicha baholanadi:</p> <p style="padding-left: 2em;">hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘z tashabbusi bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etishi – 3 ball;</p> <p style="padding-left: 2em;">Adiblar xiyobonida va boshqa xiyobonlarda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etishi – 2 ball;</p> <p style="padding-left: 2em;">ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etishdagi faol ishtiroki – 1 ball.</p>	5 ballgacha baholangan holda platformaga kiritiladi.
<b>JAMI</b>	<b>100</b>	

**Izoh:** Qoida tariqasida talaba muayyan sabab bilan (*misol uchun, OTMning ichki tartib qoidalari, Odob-axloq kodeksi talablarini buzganligi uchun*) intizomiy jazoga tortilganda “Ijtimoiy faollik indeksi”da to‘plagan balidan 15 ballgacha olib tashlanishi mumkin.